



# IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

## N<sup>o</sup>4(2)



# 2026

ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

### Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

*Elektron nashr. 2026-yil, aprel.*

### Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

### Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

### Tahrir hay'ati:

**Salimov Oqil Umrzoqovich**, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi  
**Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich**, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi  
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich**, texnika fanlari doktori (DSc), professor  
**Rae Kvon Chung**, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati  
**Osman Mesten**, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari  
**Axmedov Durbek Kudratillayevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Axmedov Sayfullo Normatovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Kalonov Muxiddin Baxritdinovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Siddiqova Sadoqat G'afforovna**, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
**Xudoyqulov Sadirdin Karimovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Maxmudov Nosir**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Yuldashev Mutallib Ibragimovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Samadov Asqarjon Nishonovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor  
**Slizovskiy Dimitriy Yegorovich**, texnika fanlari doktori (DSc), professor  
**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Axmedov Ikrom Akramovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Hakimov Nazar Hakimovich**, falsafa fanlari doktori (DSc), professor  
**Musayeva Shoirazimovna**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor  
**Ali Konak (Ali Ko'nak)**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)  
**Cham Tat Huei**, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)  
**Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.  
**Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li**, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i  
**Utayev Uktam Choriyevich**, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari  
**Ochilov Farkhod**, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i  
**Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent  
**Axmedov Javohir Jamolovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
**Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li**, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi  
**Bobobekov Ergash Abdumalikovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.  
**Djudi Smetana**, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)  
**Krissi Lyuis**, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)  
**Glazova Marina Viktorovna**, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)  
**Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
**Sevil Piriyeva Karaman**, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)  
**Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li**, TDIU ITI departamenti rahbari  
**Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li**, TDIU katta o'qituvchisi  
**Golisheva Yelena Vyacheslavovna**, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.  
**Abdukarimova Dinara Rustamxonovna**, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.  
**Ikramov Murod Akramovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Nazarova Ra'no Rustamovna**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

### Editorial board:

**Salimov Okil Umrzokovich**, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan  
**Abdurakhmanov Kalandar Khodjavevich**, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan  
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich**, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor  
**Rae Kwon Chung**, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate  
**Osman Mesten**, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society  
**Akhmedov Durbek Kudratillayevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Akhmedov Sayfullo Normatovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Siddikova Sadokat Gafforovna**, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences  
**Khudoykulov Sadirdin Karimovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Makhmudov Nosir**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Yuldashev Mutallib Ibragimovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Samadov Askarjon Nishonovich**, Candidate of Economic Sciences, Professor  
**Slizovskiy Dmitriy Yegorovich**, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor  
**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Akhmedov Ikrom Akramovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Eshtayev Alisher Abduganiyevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Khakimov Nazar Khakimovich**, Doctor of Philosophy (DSc), Professor  
**Musayeva Shoira Azimovna**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor  
**Ali Konak**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)  
**Cham Tat Huei**, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)  
**Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor  
**Fakhriddinov Zafarjon Fakhriddin ogli**, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.  
**Utayev Uktam Choriyevich**, Deputy Prosecutor of Anijan Region  
**Ochilov Farkhod**, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.  
**Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich**, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor  
**Akhmedov Javokhir Jamolovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences  
**Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli**, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer  
**Bobobekov Ergash Abdumalikovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor  
**Judi Smetana**, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)  
**Chrissy Lewis**, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)  
**Glazova Marina Victorovna**, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)  
**Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor  
**Sevil Piriyeva Karaman**, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)  
**Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli**, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE  
**Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli**, Senior lecturer at TSUI  
**Golisheva Yelena Vyacheslavovna**, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor  
**Abdukarimova Dinara Rustamkhanovna**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Ikramov Murod Akramovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Nazarova Ra'no Rustamovna**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

### Ekspertlar kengashi:

**Berkinov Bazarbay**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Po'latov Baxtiyor Alimovich**, texnika fanlari doktori (DSc), professor  
**Aliyev Bekdavlat Aliyevich**, falsafa fanlari doktori (DSc), professor  
**Isakov Janabay Yakubbayevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Xalikov Suyun Ravshanovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent  
**Rustamov Ilhomiddin**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent  
**Hakimov Ziyodulla Ahmadovich**, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent  
**Kamilova Iroda Xusniddinovna**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
**G'afurov Doniyor Orifovich**, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
**Fayziyev Oybek Raximovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
**Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
**Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi**, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent  
**Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna**, katta o'qituvchi  
**Babayeva Zuhra Yuldashevna**, mustaqil tadqiqotchi  
**Komilova Nilufar Karshiboyevna**, Geografiya fanlari doktori, professori  
**Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent  
**Zebo Kuldasheva**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

### Board of Experts:

**Berkinov Bazarbay**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Pulatov Bakhtiyor Alimovich**, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor  
**Aliyev Bekdavlat Aliyevich**, Doctor of Philosophy (DSc), Professor  
**Isakov Janabay Yakubbayevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Khalikov Suyun Ravshanovich**, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor  
**Rustamov Ilhomiddin**, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor  
**Khakimov Ziyodulla Akhmadovich**, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor  
**Kamilova Iroda Xusniddinovna**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics  
**Gafurov Doniyor Orifovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy  
**Fayziyev Oybek Raximovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor  
**Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor  
**Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna**, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor  
**Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna**, Senior Lecturer  
**Babayeva Zuhra Yuldashevna**, Independent Researcher  
**Komilova Nilufar Karshiboyevna**, Doctor of Geographical Sciences, Professor  
**Umirzokov Jasur Artiqboy ugli**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor  
**Zebo Kuldasheva**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

**Muassis:** "Ma'rifat-print-media" MChJ

**Hamkorlarimiz:** Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

### Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.



# MUNDARIJA

RAQAMLI MARKETING STRATEGIYALARINI TAKOMILLASHTIRISH ORQALI KORXONALAR RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH MEXANIZMLARI .....	20
<b>Amonov Mirzohid Tuymuratovich, Xodjayev Anvar Rasulovich</b>	
TIJORAT BANKLARINING BYUDJET MABLAG'LARI HISOBIGA MOLİYALASHTIRILADIGAN LOYIHALARDAGI ISHTIROKINI KUCHAYTIRISH MEXANIZMLARI .....	26
<b>Maxmudov Rahimjon Hamid o'g'li</b>	
KORPORATIV BOSHQARUV SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING STRATEGIK YO'NALISHLARI.....	33
<b>Shakirova Gulbaxor Sharipdjanovna</b>	
YASHIL IQTISODIYOTGA O'TISHDA XORIJIY TAJRIBALAR TAHLILI VA UNI O'ZBEKISTON SHAROITIDA QO'LLASH IMKONIYATLARI .....	38
<b>Ne'matova Mavsuma, Xolmamatov Diyorbek</b>	
ВЛИЯНИЕ НАЛОГООБЛОЖЕНИЯ НА ИНВЕСТИЦИОННУЮ АКТИВНОСТЬ ПРОМЫШЛЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЙ В УЗБЕКИСТАНЕ.....	43
<b>Буранова Лола Вахобовна</b>	
ФИНТЕХ-ЭКОСИСТЕМА КАК ФАКТОР ИНКЛЮЗИВНОГО И УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ ЭКОНОМИКИ УЗБЕКИСТАНА: СТРУКТУРНЫЙ АНАЛИЗ И ПЕРСПЕКТИВЫ ТРАНСФОРМАЦИИ .....	54
<b>Эшмуротов Дониёр Ихтиёр угли</b>	
ZAMONAVIY MARKETING KONSEPSIYALARI ASOSIDA XIZMATLAR RAQOBATBARDOSHLIGINING USLUBIY JIHATLARI.....	60
<b>Ostonaqulova Gulsaraxon Matyoqub qizi, Fayzullayeva Zamira Alijonovna</b>	
XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARINING IQTISODIY XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHDA SERVIS XAVFSIZLIGI INDEKSI: SAMARQAND VILOYATI MISOLIDA .....	64
<b>Shodmanova Zubayda Ubaydullayevna</b>	
QURILISH FAOLIYATI SOHALARIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING ILG'OR XORIJIY TAJRIBALARI	
<b>Xusanov Kamoliddin Xolmamat o'g'li</b>	
INSON KAPITALI VA KADRLAR SALOHİYATINI BOSHQARISHNING NAZARIY KONSEPSIYALARI .....	73
<b>Abdullo Sohibov</b>	
O'ZBEKISTONDA URBANIZATSIYA JARAYONLARI JADALLASHUVI VA UNING HUDUDIY XUSUSIYATLARI .....	84
<b>Mamanazarov Oybek Shomurodovich</b>	
KORXONALAR MOLİYAVIY HOLATINI MOLİYAVIY HISOBOTNING XALQARO STANDARTLARI (MHXS) ASOSIDA BAHOLASHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI .....	91
<b>Xamidov Javoxir Shavkat o'g'li</b>	
BIZNES JARAYONLARINI MONITORING QILISH TIZIMINING HOZIRGI HOLATI TAHLILI.....	95
<b>Dadajonova Madina Ravshan qizi</b>	
O'ZBEKISTON VA XORIJIY MAMLAKATLARDA BENEFITSIAR MULKIDOR KONSEPSIYASINI QO'LLASHNING DOLZARB MASALALARI .....	100
<b>Ochilov Farhod Malikovich</b>	



# TIJORAT BANKLARINING BYUDJET MABLAG'LARI HISOBIGA MOLIYALASHTIRILADIGAN LOYIHALARDAGI ISHTIROKINI KUCHAYTIRISH MEXANIZMLARI

PhD. Maxmudov Rahimjon Hamid o'g'li  
mr.rahimjon10@gmail.com

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasida byudjet mablag'lari hisobidan moliyalashtiriladigan investitsion loyihalar samaradorligini oshirishda tijorat banklarining ishtirokini kengaytirish masalasi tahlil qilinadi. So'nggi yillarda mamlakatda davlat investitsiyalarining hajmi ortib borayotgan bo'lsa-da, ayrim hollarda ularning iqtisodiy samaradorligi kutilgan darajada bo'lmayotgani kuzatilmoqda. Maqolada amaldagi moliyalashtirish tizimining ayrim jihatlari, bank sektorining imkoniyatlari hamda davlat-xususiy sheriklik (DXSh) mexanizmlaridan foydalanishning dolzarb yo'nalishlari o'rganiladi. Tadqiqotda tizimli va qiyosiy tahlil, statistik monitoring hamda ekspert baholash usullaridan foydalanilgan. Natijada tijorat banklari ishtirokini kengaytirish orqali byudjet loyihalarining moliyaviy intizomini mustahkamlash, mablag'lardan foydalanish samaradorligini oshirish va investitsion risklarni kamaytirish yo'llari asoslab berilgan.

**Kalit so'zlar:** byudjet mablag'lari, investitsion loyihalar, tijorat banklari, moliyalashtirish, davlat-xususiy sheriklik, samaradorlik, monitoring.

**Abstract.** This article analyzes the issue of expanding the participation of commercial banks in improving the efficiency of investment projects financed by budget funds in the Republic of Uzbekistan. Although the volume of public investment in the country has been increasing in recent years, in some cases its economic efficiency has remained below the expected level. The article examines certain aspects of the current financing system, the capabilities of the banking sector, and the relevant directions for using public-private partnership (PPP) mechanisms. The study employs methods such as systematic and comparative analysis, statistical monitoring, and expert assessment. As a result, the paper substantiates ways to strengthen the financial discipline of budget projects, improve the efficiency of fund utilization, and reduce investment risks through expanding the participation of commercial banks.

**Key words:** budget funds, investment projects, commercial banks, financing, public-private partnership, efficiency, monitoring.

**Аннотация.** В данной статье анализируется вопрос расширения участия коммерческих банков в повышении эффективности инвестиционных проектов, финансируемых за счет бюджетных средств, в Республике Узбекистан. Несмотря на рост объема государственных инвестиций в стране в последние годы, в отдельных случаях их экономическая отдача остается ниже ожидаемого уровня. В статье рассматриваются отдельные аспекты действующей системы финансирования, возможности банковского сектора, а также актуальные направления использования механизмов государственно-частного партнерства (ГЧП). В исследовании использовались методы системного и сравнительного анализа, статистического мониторинга и экспертной оценки. В результате обоснованы пути укрепления финансовой дисциплины бюджетных проектов, повышения эффективности использования средств и снижения инвестиционных рисков за счет расширения участия коммерческих банков.

**Ключевые слова:** бюджетные средства, инвестиционные проекты, коммерческие банки, финансирование, государственно-частное партнерство, эффективность, мониторинг.

## KIRISH

O'zbekiston Respublikasida 2017-yildan boshlab amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar natijasida davlat investitsiyalarining hajmi sezilarli darajada ortib bormoqda. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi ma'lumotlariga ko'ra, 2024-yil yakunida byudjet xarajatlari hajmi 433,6 trillion so'mni, shundan investitsion xarajatlar 58,2 trillion so'mni tashkil etgan. Shu bilan birga, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma'lumotlariga ko'ra, 2020–2024-yillar oralig'ida tijorat banklari tomonidan iqtisodiyot tarmoqlariga yo'naltirilgan kreditlar hajmi 2,5 baravar oshgan, biroq ushbu o'sish byudjet mablag'lari asosida moliyalashtiriladigan loyihalarda yetarli darajada namoyon bo'lmayapti.

Byudjet mablag'lari hisobidan moliyalashtiriladigan loyihalar ko'pincha davlat buyurtmachilari yoki tarmoq vazirliklari tomonidan bevosita boshqariladi. Natijada loyihalarning iqtisodiy samaradorligi, risk tahlili va



moliyaviy monitoringi bo'yicha yetarli baholash mexanizmlari shakllanmagan. Bu esa mablag'lardan foydalanish samaradorligini pasaytiradi hamda o'z vaqtida yakunlanmagan yoki kutilgan iqtisodiy natijani bermagan loyihalar ulushining ortishiga sabab bo'ladi.

Masalan, Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, 2023-yilda davlat investitsiyalari hisobidan amalga oshirilgan infratuzilma loyihalarining 18 foizi rejalashtirilgan muddatdan kechikkan, 9 foizida esa loyiha qiymati ortgan. Ushbu holatlar davlat investitsiya jarayonlarida tijorat banklari kabi moliyaviy intizomni ta'minlovchi institutlarning ishtiroki yetarli darajada shakllanmaganligini ko'rsatadi.

Tijorat banklari zamonaviy moliyaviy tizimning muhim bo'g'ini sifatida moliyaviy vositachilik, risklarni boshqarish hamda investitsiya jarayonlarini monitoring qilishda katta institutsional salohiyatga ega. Rivojlangan mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, byudjet mablag'lari hisobidan moliyalashtiriladigan loyihalarga tijorat banklarini jalb etish davlat investitsiyalarini boshqarishda yuqori darajadagi natijadorlikni ta'minlaydi. Buning asosiy sabablaridan biri banklar tomonidan qo'llaniladigan kreditlash, audit va monitoring mexanizmlarining moliyaviy nazoratni kuchaytirishi, shuningdek, ular o'z resurslari bilan ham manfaatdor bo'lgani sababli risklarni baholash jarayonining sifatini oshirishidir.

Xususan, Janubiy Koreya, Turkiya va Polsha amaliyotida davlat investitsiyalarining 40–60 foizi tijorat banklari orqali amalga oshirilishi mazkur mexanizmning samaradorligini tasdiqlaydi. Ushbu mamlakatlarda banklar nafaqat moliyaviy resurslarni taqdim etuvchi institut, balki loyiha monitoringi, audit jarayonlari va natijadorlikni baholashda bevosita ishtirok etuvchi subyekt sifatida ham faoliyat yuritadi.

O'zbekiston sharoitida ushbu yondashuvni qo'llash institutsional va tashkiliy jihatdan qator tayyorgarlik choralari talab etadi. Jumladan, me'yoriy-huquqiy bazani takomillashtirish, bank sektorining investitsion jarayonlardagi ishtirok doirasini kengaytirish, shuningdek, davlat investitsiyalarini boshqarish mexanizmlarini raqamlashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtayi nazardan, mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi byudjet mablag'lari hisobidan moliyalashtiriladigan loyihalarda tijorat banklarining ishtirokini kengaytirish orqali investitsiyalar samaradorligini oshirishga qaratilgan mexanizmlarni takomillashtirishdan iborat.

Tadqiqot quyidagi vazifalarni o'z ichiga oladi:

- amaldagi byudjet loyihalarini moliyalashtirish tizimidagi mavjud jihatlarni ilmiy asosda tahlil qilish;
- tijorat banklari ishtirokini kengaytirishning makroiqtisodiy va institutsional omillarini aniqlash;
- ilg'or xorijiy tajriba asosida O'zbekiston sharoitiga mos keluvchi integratsion modelni ishlab chiqish;
- davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarida tijorat banklarining funksional rolini aniqlash;
- samarali nazorat va monitoring tizimini shakllantirish bo'yicha ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqish.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi shundan iboratki, unda byudjet mablag'lari asosidagi moliyalashtirish tizimiga tijorat banklarini kompleks integratsiya qilishga yo'naltirilgan institutsional model taklif etiladi. Mazkur model davlat investitsiyalarining moliyaviy intizomini mustahkamlash, ularning shaffofligini oshirish hamda bank sektorining iqtisodiy rivojlanish jarayonidagi strategik o'rnini yanada kuchaytirishga xizmat qiladi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Tahlil qilinayotgan mavzu bir necha asosiy ilmiy yo'nalishlarni qamrab oladi: davlat investitsiyalarini boshqarish, tijorat banklarining investitsion jarayonlardagi rol-funksiyalari hamda banklar orqali moliyalashtirish samaradorligi. Quyida ushbu yo'nalishlar bo'yicha asosiy ilmiy manbalar va ularning tadqiqotga qo'shgan hissasi yoritilgan.

World Bank tomonidan tayyorlangan "Chapter 5. Public Investment Management (Uzbekistan)" hisobotida davlat investitsiyalarini boshqarish tizimining rivojlanishi, loyihalarni tanlash mezonlari hamda ularni amalga oshirish jarayonida mas'ul tashkilotlarning roli atroflicha tahlil qilingan. Mazkur hisobotda investitsion loyihalarni rejalashtirish, monitoring qilish va baholash jarayonlarida institutsional muvofiqlashtirishning ahamiyati alohida ta'kidlangan.

Shuningdek, Organisation for Economic Co-operation and Development hamda International Monetary Fund tomonidan tayyorlangan PIMA Handbook: Public Investment Management Assessment investitsion loyihalarda public investment management tizimlarini shakllantirishning nazariy asoslarini ochib beradi. Ushbu qo'llanmada davlat investitsiyalarining samaradorligini oshirish, loyiha tanlashning shaffof mezonlarini joriy etish va moliyaviy intizomni kuchaytirishning asosiy usullari ko'rsatib o'tilgan.

Mazkur adabiyotlar tadqiqot uchun muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi, chunki ular byudjet mablag'lari hisobidan moliyalashtiriladigan loyihalarda boshqaruv tizimi va moliyaviy intizomni mustahkamlash zaruratini asoslaydi. O'zbekiston sharoitida tijorat banklari orqali moliyalashtirishni kengaytirish davlat investitsiyalarini boshqarish tizimida banklarning monitoring, audit va risklarni baholash funksiyalarini kuchaytirishning samarali vositasi bo'lishi mumkin.

Mahalliy ilmiy tadqiqotlarda tijorat banklarining investitsion faoliyati va kreditlash jarayonidagi ishtiroki keng tahlil qilingan. Jumladan, Kuchkarov Fayzullo Abdujabborovich tomonidan yozilgan The Analysis of Investment Activities of Commercial Banks maqolasida tijorat banklarining investitsion kreditlashdagi imkoniyatlari va mavjud cheklovlari tahlil etilgan. Muallif banklarning uzoq muddatli moliyalashtirishdagi o'zni, kredit risklari va investitsion portfelni boshqarish



masalalariga alohida e'tibor qaratgan.

Shuningdek, Isakov Isobek Janabay uli tomonidan tayyorlangan *Importance of Commercial Banks in Promoting Capital Market Development* maqolasida tijorat banklarining kapital bozorini rivojlantirishdagi roli hamda ular orqali uzoq muddatli investitsiyalarni jalb qilish mexanizmlari yoritilgan. Mazkur tadqiqot banklarning investitsion loyihalarni moliyalashtirishda nafaqat kredit beruvchi institut, balki investitsion vositachi sifatidagi ahamiyatini ham ko'rsatadi.

Ushbu adabiyotlar tijorat banklarining byudjet mablag'lari asosida moliyalashtiriladigan loyihalarga jalb etilishi investitsion samaradorlikni oshirishga xizmat qilishi mumkinligini nazariy jihatdan asoslab beradi.

O'zbekistonda tijorat banklarining investitsion loyihalardagi ishtirokini o'rgangan tadqiqotlar bank sektorining imkoniyatlari bilan bir qatorda mavjud muammolarni ham ko'rsatadi. Xususan, Rustam Sultanov va Umidjon Duskobilov tomonidan tayyorlangan *Bank Risk Profile and Horizons in Financing Investment Projects: A Case Study of Selected Banks in Uzbekistan* maqolasida banklarning investitsion loyihalarga jalb etilishidagi risklar va ularning loyiha samaradorligiga ta'siri tahlil qilingan.

Bundan tashqari, In'jomjon Ozodovich Madaminov o'z tadqiqotlarida O'zbekistonda tijorat banklarining investitsion faoliyatini kengaytirish bo'yicha qator takliflarni ilgari surgan. Muallif banklarning uzoq muddatli resurs bazasini mustahkamlash, institutsional ishtirokini kengaytirish va investitsion kreditlash hajmini oshirish zarurligini qayd etadi.

Organisation for Economic Co-operation and Development tomonidan tayyorlangan *Green Finance and Investment* hisobotida esa O'zbekistonda banklar va investitsiya loyihalarini qo'llab-quvvatlash istiqbollari, bank sektorini isloh qilish yo'nalishlari hamda moliyaviy vositachilik samaradorligini oshirish masalalari tahlil qilingan.

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, davlat investitsiyalarini boshqarish tizimida tijorat banklarining to'liq integratsiyasi hali yetarli darajada shakllanmagan. Ko'plab tadqiqotlarda tijorat banklari investitsion loyihalarda nafaqat kredit beruvchi institut, balki monitoring, audit va risklarni baholash funksiyalarini ham bajarishi lozimligi qayd etilgan. Shu bilan birga, O'zbekistonda bank sektorining investitsion yo'nalishdagi faoliyatida huquqiy, institutsional va moliyaviy cheklovlar mavjudligi ham alohida ta'kidlangan.

Shu nuqtayi nazardan, mazkur tadqiqot mavjud ilmiy bo'shliqni to'ldirishga qaratilgan bo'lib, unda byudjet mablag'lari hisobidan moliyalashtiriladigan loyihalarda tijorat banklarini to'liq integratsiyalash modelini ishlab chiqish taklif etiladi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda O'zbekiston Respublikasida byudjet mablag'lari hisobidan moliyalashtiriladigan loyihalarda tijorat banklarining ishtirokini oshirishning iqtisodiy, institutsional va huquqiy asoslari tizimli ravishda tahlil qilindi. Ilmiy izlanishda quyidagi metodologik yondashuvlar va tahlil usullaridan foydalanildi:

Tizimli yondashuv usuli. Tizimli yondashuv yordamida davlat investitsiyalarini moliyalashtirish zanjiri — byudjet mablag'larining ajratilishidan boshlab, loyiha natijasining iqtisodiy samaradorligigacha bo'lgan jarayonlar o'rganildi. Mazkur usul orqali davlat organlari, tijorat banklari va loyihani amalga oshiruvchi tashkilotlar o'rtasidagi o'zaro aloqalar modeli ishlab chiqildi. Natijada, tijorat banklarini ushbu tizimga jalb etish moliyaviy nazoratni kuchaytirish, shaffoflikni oshirish hamda mablag'lardan foydalanish samaradorligini ta'minlashga xizmat qilishi aniqlashtirildi.

Qiyosiy tahlil usuli. Qiyosiy tahlil O'zbekiston amaliyoti hamda rivojlangan davlatlar, xususan Janubiy Koreya, Turkiya va Polsha tajribasi asosida amalga oshirildi. Mazkur davlatlarda byudjet mablag'lari hisobidan moliyalashtiriladigan loyihalarda tijorat banklarining ishtiroki 40–60 foizni tashkil etsa, O'zbekistonda bu ko'rsatkich 12–15 foiz atrofida ekani kuzatildi. Qiyosiy tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, xorijiy amaliyotda tijorat banklari nafaqat moliyaviy vositachi, balki loyiha auditi, risklarni baholash va monitoring jarayonlari uchun ham mas'ul subyekt sifatida faoliyat yuritadi.

Statistik tahlil usuli. Statistik tahlil O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi hamda Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida amalga oshirildi. Tadqiqotda 2020–2024-yillar oralig'idagi quyidagi ko'rsatkichlar tahlil qilindi:

- davlat byudjetining investitsion xarajatlari hajmi;
- tijorat banklari tomonidan ajratilgan investitsion kreditlar ulushi;
- davlat investitsiyalarining yalpi ichki mahsulotdagi (YalIM) ulushi;
- bank sektori aktivlarining o'sish dinamikasi.

Mazkur statistik ma'lumotlar asosida tijorat banklarining investitsion jarayonlardagi ishtiroki bilan davlat investitsiyalarining samaradorligi o'rtasidagi bog'liqlik baholandi.

Ekspert baholash usuli. Tadqiqot davomida bank sohasi mutaxassislari, iqtisodchilar va investitsiya loyihalari bilan shug'ullanuvchi amaliyotchilarning fikr-mulohazalari ham inobatga olindi. Ekspert baholash orqali tijorat banklarining byudjet mablag'lari asosida moliyalashtiriladigan loyihalardagi ishtirokini kengaytirishning afzalliklari, mavjud cheklovlari va istiqbollari aniqlashtirildi.



Ilmiy umumlashtirish usuli. Tadqiqot natijalari ilmiy umumlashtirish usuli orqali tizimlashtirildi. Mazkur usul asosida tijorat banklarini davlat investitsiyalarini moliyalashtirish tizimiga kompleks integratsiya qilish bo'yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi (1-jadval).

1-jadval.2020–2024-yillarda O'zbekistonda davlat investitsiyalari va bank kreditlari hajmi (trln so'mda)

Yil	Davlat investitsiyalari	Tijorat banklari kreditlari	Kreditlar ulushi (%)
2020	32,4	168,7	9,4
2021	38,2	207,5	10,5
2022	46,7	248,9	11,2
2023	52,6	295,4	12,4
2024	58,2	340,8	13,1

### Manba: O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki, Moliya vazirligi hisobotlari, 2020–2024-yillar.

Ushbu jadval tahlili shuni ko'rsatadiki, so'nggi besh yil davomida tijorat banklarining iqtisodiyotdagi umumiy kredit hajmi izchil oshib borgan bo'lsa-da, byudjet mablag'lari asosida moliyalashtiriladigan loyihalardagi ulushi nisbatan past bo'lib, o'rtacha 13 foizni tashkil etadi. Bu holat davlat investitsiyalarini amalga oshirish jarayonida tijorat banklarining moliyaviy nazorat, monitoring va risklarni baholash imkoniyatlaridan yetarli darajada foydalanilmayotganini ko'rsatadi.

Bu yerda:

MSK — moliyalashtirish samaradorligi ko'rsatkichi (%);

$Q_1$  — tijorat banklari ishtirokidagi loyihalar natijasida erishilgan iqtisodiy samaradorlik;

$Q_2$  — faqat byudjet mablag'lari asosida amalga oshirilgan loyihalarning samaradorligi.

Empirik hisob-kitoblar tahlili shuni ko'rsatadiki, tijorat banklarining bevosita ishtiroki mavjud bo'lgan loyihalarda moliyaviy samaradorlik ko'rsatkichi (MSK) o'rtacha 18–22 foizga yuqori bo'lgan. Ushbu natija banklar tomonidan qo'llaniladigan risklarni baholash, moliyaviy monitoring va xarajatlar ustidan nazorat mexanizmlarining loyihaning umumiy natijadorligiga sezilarli ta'sir ko'rsatishini tasdiqlaydi. Bunda banklarning o'z kapitali manfaatlar bilan bog'liq ravishda moliyaviy oqimlarni qat'iy nazorat qilishi, shuningdek, investitsion risklarni kamaytirishga qaratilgan institutsional jarayonlarni kuchaytirishi muhim omil sifatida namoyon bo'ladi.

Tadqiqotning huquqiy-metodologik asosi O'zbekiston Respublikasi Byudjet kodeksi, Law of the Republic of Uzbekistan on Public-Private Partnership, O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2023-yilda tasdiqlangan investitsion kreditlarni baholash tartibiga oid nizomi, shuningdek, Organisation for Economic Co-operation and Development va International Monetary Fund tomonidan ishlab chiqilgan davlat investitsiyalarini boshqarish bo'yicha metodik standartlar tahliliga asoslandi. Mazkur hujjatlar davlat investitsiyalari jarayonida ishtirok etuvchi institutlarning vakolatlari, javobgarligi va boshqaruv mexanizmlarini belgilovchi normativ mezonlar sifatida muhim ahamiyatga ega.

Ushbu normativ-huquqiy manbalar tahlili shuni ko'rsatadiki, amaldagi huquqiy bazada tijorat banklarining davlat loyihalari bo'yicha monitoring yuritish, moliyaviy audit o'tkazish hamda loyiha parametrlari bajarilishini baholash kabi funksiyalarini aniq belgilab beruvchi normalar yetarli darajada shakllanmagan. Natijada banklarning loyihaviy boshqaruv jarayonlarida to'laonli ishtirokini ta'minlaydigan institutsional asoslar yetarli darajada rivojlanmagan.

Amaldagi tartib-taomillarning bunday cheklanganligi davlat investitsiyalarining shaffofligi, natijadorligi va moliyaviy intizomiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shu sababli, mavjud me'yoriy-huquqiy hujjatlarni kompleks ravishda takomillashtirish, tijorat banklariga monitoring, audit va baholash bo'yicha aniq vakolatlarni belgilash, shuningdek, ularning davlat investitsiyalari bo'yicha mas'uliyat doirasini kengaytirish zarur hisoblanadi. Mazkur o'zgarishlar davlat investitsiyalarini boshqarish tizimining institutsional barqarorligini mustahkamlash, ichki va tashqi risklarni kamaytirish hamda loyiha ijrosi ustidan tizimli nazoratni kuchaytirishga xizmat qiladi.



## TAHLIL VA NATIJALAR


O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi hamda Markaziy bank ma'lumotlariga ko'ra, 2020–2024-yillarda byudjet mablag'lari asosida moliyalashtirilgan loyihalar hajmi va ularda tijorat banklari ishtirokinging ulushi quyidagi dinamikaga ega bo'lgan (2-jadval).

2-jadval.2020–2024-yillarda byudjet loyihalarida tijorat banklari ishtiroki

Yil	Byudjet loyihalar hajmi (trln so'm)	Tijorat banklari ulushi (%)	Moliyaviy samaradorlik ko'rsatkichi(MSK, %)
2020	32,4	9,4	15,2
2021	38,2	10,5	16,1
2022	46,7	11,2	17,5
2023	52,6	12,4	18,3
2024	58,2	13,1	19,8

Manba: O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, Markaziy bank, 2020–2024-yillar.

Jadvaldan ko'rinish turibdiki, tijorat banklari ishtiroki oshgan sayin, loyihalarning moliyaviy samaradorligi (MSK) ham ortgan. 2020-yilda 15,2 % bo'lgan samaradorlik 2024-yilda 19,8 % ga yetgan. Bu shuni ko'rsatadiki, banklar ishtirokidagi monitoring va risk boshqarish mexanizmlari loyihalarning iqtisodiy natijalarini sezilarli darajada yaxshilaydi (1-rasm).



1-rasm. Byudjet loyihalari va tijorat banklari ulushi dinamikasi (2020–2024)

Rasmdan ko'rinish turibdiki, byudjet loyihalari hajmi ortib borayotgan bo'lsa-da, tijorat banklari ulushi nisbatan sekin o'smoqda. Shu nuqtai nazardan, banklar ishtirokini kengaytirish masalasi dolzarb hisoblanadi (3-jadval).

3-jadval.Davlat loyihalarida tijorat banklari ulushi (foiz)

Mamlakat	Tijorat banklari ulushi (%)	Natija samaradorligi (% o'sish)
Janubiy Koreya	55	22–25
Turkiya	48	20–23
Polsha	42	18–21
O'zbekiston	13	19,8 (2024)

Manba: OECD, IMF, O'zbekiston Moliya vazirligi, 2020–2024.

Xorijiy mamlakatlar tajribasi bilan taqqoslaganda, O'zbekistonda davlat loyihalariga tijorat banklarining jalb etilish darajasi nisbatan past ekani kuzatiladi. Shu bilan birga, mavjud loyihalarda erishilgan moliyaviy natijalar



banklar ishtirokining kengaytirilishi investitsion jarayonlarning samaradorligini oshirish uchun yetarli zamin mavjudligini ko'rsatadi.

Ekspertlar o'rtasida o'tkazilgan so'rovnomalar va statistik ma'lumotlar tahlili asosida investitsion jarayonlar barqarorligiga ta'sir ko'rsatuvchi asosiy risk omillari aniqlangan. Jumladan:

moliyaviy intizomning yetarli emasligi — ekspertlarning 78 foizi ushbu omilni investitsion jarayonlarning eng dolzarb muammolaridan biri sifatida qayd etgan;

loyiha monitoringi va audit mexanizmlarining rivojlanmaganligi — 64 foiz ekspertlar ushbu holatni jiddiy cheklov sifatida ko'rsatgan;

byudjet mablag'larining samarali taqsimlanmasligi — mutaxassislarning 52 foizi ushbu muammoning mavjudligini tasdiqlagan;

tijorat banklari ishtiroki bilan bog'liq huquqiy cheklovlar — amaldagi normativ-huquqiy bazada banklarning mas'uliyat va vakolatlari yetarli darajada aniq belgilab qo'yilmagan.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, tijorat banklarining investitsion jarayonlarga jalb etilishi ushbu risklarning sezilarli darajada kamayishiga xizmat qiladi. Chunki banklar o'z mablag'lari bilan manfaatdor bo'lgan holda risklarni chuqur baholash, tizimli monitoring yuritish va moliyaviy intizomni mustahkamlashga intiladi.

O'tkazilgan tahlillar asosida davlat investitsiyalariga tijorat banklarini jalb qilish quyidagi asosiy afzalliklarni taqdim etishi aniqlangan:

loyihalarning moliyaviy intizomi mustahkamlanadi va xarajatlar ustidan nazorat kuchayadi;

risklarni baholash, audit va monitoring amaliyotlari sifat jihatidan takomillashadi;

byudjet mablag'laridan foydalanish samaradorligi o'rtacha 18–22 foizga ortadi;

davlat-xususiy sheriklik mexanizmlari asosida investitsion loyihalarning barqaror moliyaviy ta'minoti shakllanadi.

Mazkur natijalar tijorat banklarining kengroq ishtiroki davlat investitsiyalarini boshqarish samaradorligini oshirish, loyihalari risklarni kamaytirish va moliyaviy intizomni mustahkamlashda muhim vosita bo'lishini ko'rsatadi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, O'zbekistonda byudjet mablag'lari hisobidan moliyalashtiriladigan loyihalarda tijorat banklarining ulushi hali ham nisbatan past bo'lib, 2024-yil ma'lumotlariga ko'ra 13,1 foizni tashkil etadi. Shu bilan birga, banklar jalb qilingan loyihalarda moliyaviy samaradorlik 18–22 foizga oshgani kuzatildi. Bu natija tijorat banklari loyihalarning moliyaviy va investitsion nazoratini kuchaytirish orqali ularning samaradorligini sezilarli darajada oshirishini ko'rsatadi.

Janubiy Koreya, Turkiya va Polshada tijorat banklari byudjet loyihalarida 40–55 foiz ulushga ega bo'lib, loyihalarning samaradorligi 18–25 foizga oshgan. O'zbekiston sharoitida esa banklar ishtiroki nisbatan past bo'lishiga qaramay, samaradorlik shunga yaqin ko'rsatkichlarni namoyon etmoqda. Bu holat, bir tomondan, byudjet loyihalarini amalga oshirish tizimida mavjud salohiyatni ko'rsatsa, ikkinchi tomondan, tijorat banklari ishtiroki kengaytirilsa, natijalar yanada yuqori bo'lishi mumkinligini anglatadi.

Tijorat banklari jalb etilgan hollarda:

loyiha monitoringi va auditi mustahkamlanadi;

mablag'lar taqsimoti yanada shaffof bo'ladi;

risklarni aniqlash va boshqarish imkoniyatlari kengayadi.

Ekspert so'rovnomalari natijalariga ko'ra, banklar o'z mablag'lari bilan ishtirok etadigan loyihalarda yanada ehtiyotkor yondashadi hamda har bir loyiha iqtisodiy asoslangan va samaradorlikka yo'naltirilgan bo'lishiga alohida e'tibor qaratadi. Shu tarzda davlat mablag'laridan foydalanish samaradorligi oshadi.

O'zbekiston Respublikasi Byudjet kodeksi, Law of the Republic of Uzbekistan on Public-Private Partnership va O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki nizomlariga ko'ra, tijorat banklarining loyihalarga jalb qilinishini tartibga soluvchi aniq mexanizmlar yetarli darajada shakllanmagan. Xorijiy tajribada esa banklar moliyaviy nazoratchi sifatida, shuningdek, investitsion risklarni baholash va monitoring qilish jarayonlarida faol ishtirok etadi. Shu sababli, normativ-huquqiy islohotlar amalga oshirilsa, tijorat banklari ishtiroki kuchayadi va natijadorlik yanada ortadi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda byudjet mablag'lari hisobidan moliyalashtiriladigan investitsion loyihalarda tijorat banklarining ishtiroki nisbatan past darajada shakllangan bo'lib, 2024-yilda ushbu ulush atigi 13,1 foizni tashkil etgan. Bu holat loyihalarni rejalashtirish, monitoring qilish va moliyaviy boshqarish jarayonlarida muayyan institutsional cheklovlar mavjudligini ko'rsatadi.

Shunga qaramay, mavjud tajriba shuni ko'rsatadiki, tijorat banklari jalb etilgan loyihalarda moliyaviy samaradorlik o'rtacha 18–22 foizga oshgan. Ushbu o'sish, avvalo, banklarning risklarni baholash tizimi, kredit portfelini boshqarish hamda moliyaviy intizomni nazorat qilishdagi yuqori salohiyati bilan izohlanadi. Banklarning qat'iy moliyaviy talablari



loyihalarning har bir bosqichida sifatli nazoratni kuchaytirishga xizmat qiladi.

Xorijiy davlatlar, xususan Janubiy Koreya, Turkiya va Polsha tajribasi shuni tasdiqlaydiki, tijorat banklari faol ishtirok etgan davlat investitsiya dasturlarida iqtisodiy samaradorlik sezilarli darajada yuqori bo'лади. Bunday mamlakatlarda banklarning loyiha boshqaruvidagi funksiyalari kengaytirilgan bo'lib, ular nafaqat moliyaviy vositachilikni, balki risklarni boshqarish, loyiha barqarorligini baholash va monitoring qilish kabi strategik vazifalarni ham bajaradi.

O'zbekiston sharoitida ham tijorat banklari ishtirokini kengaytirish loyiha samaradorligini oshirishda muhim omil bo'lib xizmat qilishi mumkin. Avvalo, normativ-huquqiy bazani yanada takomillashtirish, banklarning mas'uliyati va vakolatlarini aniq belgilash, ularni davlat investitsiya jarayonlarining to'laqonli ishtirokchisiga aylantirish zarur. Bu esa banklarning manfaatdorligini oshiradi, moliyaviy shaffoflikni kuchaytiradi va loyihalar bo'yicha risklarni kamaytiradi.

Shuningdek, quyidagi takliflarni amalga oshirish maqsadga muvofiq hisoblanadi:

tijorat banklarining byudjet loyihalaridagi ishtirokini rag'batlantiruvchi institutsional mexanizmlarni joriy etish;

banklar tomonidan loyiha monitoringi, audit va risklarni baholash tizimini yo'lga qo'yish;

davlat-xususiy sheriklik loyihalarida tijorat banklarining resurs va ekspert salohiyatidan keng foydalanish;

davlat investitsiyalarini boshqarishda raqamli monitoring va nazorat tizimlarini joriy etish;

tijorat banklari, davlat organlari va loyiha ijrochilari o'rtasida o'zaro hamkorlik mexanizmlarini takomillashtirish.

Tijorat banklari byudjet loyihalari doirasida faqat moliyaviy resurslarni taqdim etuvchi vositachi sifatida emas, balki loyiha natijadorligini oshiruvchi, iqtisodiy samaradorlikni ta'minlaydigan strategik hamkor sifatida jalb qilinishi lozim. Bunday yondashuv davlat investitsiyalarining umumiy samaradorligini oshirish, resurslardan oqilona foydalanish va mamlakat iqtisodiy barqarorligini yanada mustahkamlashga xizmat qiladi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Mamatov B.S. The Role of Banks in the Development of the Real Sector Economy of Uzbekistan // World Economics and Finance Bulletin. – 2023. – Vol. 23. – P. 35–41.
2. Allaberganov Z.G. The Role of Investment in Improving the Activities of Banks in Uzbekistan // Euro Afro Studies International Journal. – 2021. – Vol. 3. – Issue 5. – P. 139–146.
3. Makhmudov S.B., Norov A.R. Importance of Investment Banks in Project Financing // American Journal of Public Diplomacy and International Studies. – 2023.
4. Mirzakhodzhaev A.B., Nasirov D.F. Investment Policy as a Tool for Ensuring the Economic Security of Uzbekistan // Central Asian Journal of Innovations on Tourism Management and Finance. – 2023. – Vol. 4. – No. 11. – P. 32–37.
5. Jo'rayev O'.P. Directions for Attracting Investments Through Commercial Banks // The Peerian Journal. – 2024.
6. Kuchkarov F.A. The Analysis of Investment Activities of Commercial Banks // EPRA International Journal of Economics, Business and Management Studies. – 2025.
7. Isakov I.J. Importance of Commercial Banks in Promoting Capital Market Development // Science, Education, Innovation: Modern Tasks and Prospects. – 2025.
8. Sultanov R., Duskobilov U. Bank Risk Profile and Horizons in Financing Investment Projects: A Case Study of Selected Banks in Uzbekistan // International Journal of Management Sciences and Business Administration. – 2021. – Vol. 7. – Issue 5.
9. Miller M., Mustapha S. Public Investment Management: A Public Financial Management Introductory Guide. – Overseas Development Institute, 2022.
10. Organisation for Economic Co-operation and Development, World Bank. Green Finance and Investment: Uzbekistan. – Paris: OECD Publishing, 2023.
11. O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankinging rasmiy veb-sayti. – Central Bank of the Republic of Uzbekistan.